

UO'T: 331. 631.16(575.172)

**QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINI BOSHQA YER TOIFALARIGA
AJRATISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI**

Turayev Ruxiddin Amirqulovich

"O'zdavyerloyiha" DILI Bosh direktori t.f.d., professor

Email: (uzdavyerloyiha@umail.uz)

Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li

"O'zdavyerloyiha" DILI q.x.f.f.d, (PhD)

Email: (safayev77@mail.ru)

Annotasiya. Qishloq xo'jaligiga mo'jallangan yerkarni shahar hududiga ajratilishida yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda jumladan, Toshket viloyati hamda Toshkent shahri o'rtaqidagi chegara chiziqlarini topografik syomka qilib nuqtali qatlamlar ko'rinishidaga vektor qatlamlari ishlab chiqildi va maydonli ko'rinishda geovizuallashtirildi. Toshkent shahar hududining jami yer maydoni GPS suniy yo'ldosh to'lqin qabul qilgichi yordamida tadqiq qilindi. Dala tadqiqot ishlari Toshkent viloyati bo'yicha jami 784 ta, Toshkent shahri chegarasi bo'yicha 776 ta nuqtadan iborat bo'lgan maydonli qatlama vektorizasiya qilindi.

Kalit so'zlar: Yer maydoni, qishloq xo'jaligi yerkarni, yer tuzish loyihalarini, GPS (Global Positioning System) - suniy yo'ldosh to'lqin qabul qilgichi, elektron taxeometr, topografik s'jomka, nuqtali qatlamlar, vektor qatlamlar, chegara chiziqlari.

Kirish. Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish va yer monitoringini to'g'ri tashkil etish, ayniqsa qishloq xo'jaligiga mo'jallangan yerkarni shahar hududiga ajratilishi yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 81-bandida «...yer maydonlari chegaralarini belgilash va o'zgartirishlar kiritishni qayta ko'rib chiqish» bo'yicha muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga innovasion ta'sir ko'rsatuvchi tizim yaratish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali qishloq xo'jaligiga mo'jallangan yerkarni shahar hududiga ajratish hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyun PF-6243-sodn «Yer munosabatlarini tenglik va shaffofolikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28

yanvardagi PQ-4575-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021 yil 27 avgust 543-son qarori bilan «Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamenti» hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.


Qishloq xo‘jaligi yerlaridan aholi yashash joylari uchun yer ajratishda olib borilgan dala tadqiqot ishlarini mualliflar bir qancha geodezik qurilmalar yordamida amalga oshirgan. Jumladan, elektron taxeometr, GPS (Global Positioning System) va GNSS (Global Navigation Satellite System) geodezik qurilmalarini keltirish mumkin.

Elektron taxeometr geodezik qurilmasi yordamida to‘g‘ri burchakli koordinatalar tizimi asosida qishloq xo‘jaligi yerlarining miqdorini aniqlash uchun dala topografik tadqiqot ishlarini olib borilgan. Bunda yer turlari va ma’muriy-hududiy birlik chegaralarini aniqlash ishlarini amalga oshirilgan. Olib borilgan dala tadqiqot ishlarida Leica TS06 markadagi elektron taxeometri qo‘llanilgan bo‘lib, qurilma 3 sekund aniqlikdagi natijalarga erishishda xizmat qiladi.

GPS geodezik qurilmasi yordamida yerdan foydalanuvchilar va ekin yerlarining turlari maydonli qatlamlar asosida s’yomka qilish ishlarini amalga oshirilgan. Olib borilgan dala tadqiqot ishlarida Stonex R7 markadagi GPS qurilmasi qo‘llanilgan bo‘lib, qurilma 7 sekund aniqlikdagi natijalarga erishishda xizmat qiladi.

GNSS geodezik qurilmasi yordamida olib borilgan barcha dala tadqiqot ishlarini aniqligini oshirish maqsadida qo‘llanilgan. Olib borilgan dala tadqiqot ishlarida Chckaw i-70 markadagi GNSS qurilmasi qo‘llanilgan bo‘lib, qurilma 2 sekund aniqlikdagi natijalarga erishishda xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida olib borilgan asosiy dala ishlarini qishloq xo‘jaligi va aholi yashash joylarining chegara chizig‘ini aniqlash va atrof-muhitdagisi infratuzilmani (avtomobil yo‘llari, sug‘orish tarmoqlari, ekin yer maydonlari, yetkazib beruvchi gaz quvirlari, elektr energetika ob‘yektlari va liniyalari hamda chiqindi poligonlari) inobatga olgan holda topografik xaritasini yaratishdan iborat bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Topografik dala tadqiqot ishlarini olib borishda infratuzilmani inobatga olish sxemasi.

Toshkent viloyatidagi infratuzilmani inobatga olishda dastlab mavjud materiallar o‘rganilib, “Openstreetmap” ma’lumotlari asosida abris shakllantirildi. Shakllantirilgan abris eletkron taxeometrda joydagi ob’yektlarning koordinatalarini o‘rganishda qo‘llanildi. Leica TS06 elektron taxeometrida olib borilgan dala tadqiqot ishlari quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirildi:

1. Belgilangan hududni topografik jixatdan tadqiq qilish uchun, eng avvalo hududda rekognossirovka (hududni kuzatish va/yoki razvetka qilish) ishlari olib borildi va hududning abris(tasavvurdagi xomaki chizma)si chiziladi.
2. Hudud to‘liq o‘rganib bo‘linganch, baza o‘rnatish uchun eng maqbul joy tanlandi. Maqbul joydan turib qaralganda hududning eng ko‘p qismi ko‘rinishi lozim.

Baza o‘rnatishda mahalliy (shartliy) koordinatalar tizimidan yoki davlat koordinatalar tizimidan foydalanilishiga qarab s’yomka turlari tanlandi.

3. Baza o‘rnatish uchun maqbul joy tanlangach, mazkur nuqtaga shtativ o‘rnatiladi. Taxeometr treger yordamida shtativga maxkamlanadi. Taxeometr dan tushayotgan lazer nuri yordamida pribor geodezik belgiga markazlashtiriladi. Maxsus info tugmasi yordamida piborning quvvati va xotirasi tekiriladi. Sungra doiraviy adilak pufakchalari markazga keltiriladi.

4. Bosh menyudan *Upravleniya* bandi tanlandi va *Proyekt* qatori belgilandi, so‘ngra yangi proyekt yaratiladi. Hosil bo‘lgan darchadan proyektga ishning mavzusidan kelib chiqib nom beriladi va inter tugmachasi bosiladi. Natijada, hosil bo‘lgan navbatdagi darchaga daleye ya’ni F4 tugmachasi ikki marotaba bosiladi va displayda danniy zapisano va proyekt zaregistrirovano yozuvlari nomayon bo‘ldi.

5. Bosh menyudan tvyordaya tochka bandiga kirilib hosil bo‘lgan ishchi darchaga mazkur turgan nuqtamizning ma’lumotlari kiritiladi.

6. F4 tugmachasini bosish yordamida keyingi T2 nuqtaning ma’lumotlarini kiritish so‘raladi. Agarda shartli koordinatalar asosida ish olib borilayotgan bo‘lsa T2 nuqtasi kiritilmaydi va 2 marotaba ESC tugmachasini bosib darchadan chiqib ketiladi.

7. Bosh menyudan programma qatoriga kirilib ustanovka stansiya qatori tanlandi va F4 tugmachasi bosilib zapus qilinadi.

8. Hosil bo‘lgan navbatdagi darchadan s’yomka metodiga ko‘ra oriyentiro po uglu metodi tanlandi(shartli koordinatalar tizimi bo‘lganligi sababli) keyingi qatordagi stansiya bandidan F2 tugmachasini bosib spiska ruyxatidagi mavjud yaratilgan T1 nuqtasi F4 tugmachasi yordamida yuklab olindi.

9. h instrument balandligi o‘lchandi va metr birligida kiritiladi. F4 tugmachasi yordamida daleye funksiyasi bajariladi va shimoliy qutbga yoki qo‘zg‘almas ob’yektga nisbatan oriyentirlanib h gorizontal burchakni nol qiymatiga tenglab olindi.

10. So‘ngra F2 tugmachasi yordamida ustanovka funksiyasi bajarilib, stansiya oriyentir ustanovlena yozuvi ostida info namoyon bo‘ladi.

11. Bosh menyudan programma bandiga kirilib s’yomka qatori tanlanadi va F4 tugmachasi yordamida zapusk amali bajarildi.

12. Natijada hosil bo‘lgan darchadan nur qaytargichning balandligi kiritildi va kerakli bo‘lgan nuqtalarning bo‘sahasidan nur qaytargich yordamida belgilandi.

13. Pribor bilan vizir yordamida nur qaytargich nishonga olinadi va VSE tugmachasini bosib ma’lumotlar aniqlash jarayoni amalga oshiriladi.

S’yoma ishlarini yakunlab navbatdagi baza nuqtasiga ko‘chish uchun. ESC tugmachasini bosish yordamida proyektan chiqib ketiladi va pribor tregeri shtativdan maxkamlagich vinti yordamida bo‘shatiladi va navbatdagi kuzatuv nuqtasiga o‘tiladi.

Navbatdagi kuzatuv nuqtasiga o‘tilgach, shtativ yerga maxkamlanadi va pribor treger yordamida shtativga maxkamlanadi.

14. Bosh menyudan Prog bandiga kirildi va ustanovka stansiya qatori tanlandi. F4 tugmachasi yordamida zapus beriladi. Metodga ko‘ra oriyent po koordinat (mavjud shartli ravshda aniqlab olingan koordinatalar qiymatiga asoson amalga oshiriladi) qatori tanlanadi.

15. Navbatdagi qatordan F2 tugmachasi bosilib spisok buyrug‘i bajariladi va mazkur topilgan nuqtaning qiymatlari F4 daleye tugmachasi yordamida yuklab olinadi.

16. h instrument balandligi qaytadan o‘lchanib kiritiladi hamda yana bir bor F4 tugmachasi yordamida daleye amali bajariladi. Natijada *Vvedite tochku oriyentirovani* nomi ostida darcha xosil bo‘ladi, unga ko‘ra oriyentir olinmoqchi bulgan nuqtaning raqami va qiymatlari F2 tugmachasi yordamida topiladi va F4 daleye tugmachasi yordamida yuklab olindi.

17. Qiymatlар kiritib olingan oriyentir olinayotgan nuqtaga qaratiladi va VSE tugmachasi bosiladi. Natijalar darchasi hosil bo‘ladi va bundan F4 tugmchasini bosib *vqcheslit koord. stansii* amalga oshiriladi.


18. Takroran F4 tugmchasini bosib, ustanovka ishlari olib boriladi. Ustanovkaga ko‘ra oriyentir olingan nuqtaning mavjud qiymatlari va qaytadan oriyentir olingan nuqtaning qiymatlari taqqoslanadi. Ish tartibiga ko‘ra F3 tugmchasini bosib qiymatlarning o‘tacha hisobi yuklab olindi.

19. Natijada displayda *Stansiya i oriyentasiya ustanovlenq* infosi namoyon bo‘ladi. So‘ngra bosh menyudan s’yomka bandi tanlanib topografik s’yomka ishlari F4 tugmchasini bosish orqali davom ettirildi.

Yuqorida keltrilgan ketma-ketliklarni bajarish natijasida hududlardagi topografik-geodezik dala qidiruv ishlari amalga oshirildi va maxsus dasturiy ta’mintarda tenglashtirish (reduksiya va markazlashtirish xatoliklarini tarqatish) ishlarini amalga oshirish bosqichi olib borildi.

Tenglashtirish ishlari yakuniga yetgach abris asosida hududning plani va interpolysiya usuli yordamida hududning relyeflari quriladi. Amalda bajarilgan ishlarning natijalariga tayanib uch o‘lchamdagи modelni qo‘rish imkoniyatini ham beradi.

Elektron taxeometrda bajarilgan dala tadqiqot ishlari natijasida Toshkent viloyati va Toshkent shahri o‘rtasidagi chegara hududlari topografik s’yomka qilinib, chegara hududlari aniqlashtirib chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Elektron taxeometr yordamida olib borilgan dala ishlari.

Olib borilgan dala tadqiqot ishida jami 3 700 metrdagi Toshkent viloyati Qibray tumani va Toshkent shahri M.Ulug‘bek nomli tumanlari o‘rtasidagi masofa o‘rganilgan bo‘lib, jami 9 ta bazaviy bekatlar o‘rnatildi (1-jadval).

1-jadval

Bazaviy bekatlarning koordinatalar katalogi

| T/r | Turi | Nomi | Geografik kengligi | Geografik uzoqligi |
|-----|------|------|--------------------|--------------------|
| 1 | Baza | ST10 | 69,398828 | 41,363297 |
| 2 | Baza | ST9 | 69,404993 | 41,359146 |
| 3 | Baza | ST7 | 69,409325 | 41,354008 |
| 4 | Baza | ST8 | 69,409136 | 41,348082 |
| 5 | Baza | ST5 | 69,412357 | 41,343865 |
| 6 | Baza | ST4 | 69,413672 | 41,351354 |
| 7 | Baza | ST3 | 69,41032 | 41,358821 |
| 8 | Baza | ST2 | 69,40568 | 41,363541 |
| 9 | Baza | ST1 | 69,396979 | 41,368121 |

Bazaviy bekatlar asosida 31 dona otmetka nuqtalari o‘tkazilib, Toshkent qiloyati Qibray tumanidan Toshkent viloyati M.Ulug‘bek tumaniga o‘ztkazilishi rejalashtirilgan yer maydonlarining chegara chizig‘ining topografik plani yaratildi (2-jadval).

2-jadval

Otmetkalarning koordinatalar katalogi

| T/r | Turi | Nomi | Geografik kengligi | Geografik uzoqligi |
|-----|---------|------|--------------------|--------------------|
| 1 | Otmetka | 1 | 69,395893 | 41,364321 |
| 2 | Otmetka | 2 | 69,39724 | 41,365078 |
| 3 | Otmetka | 3 | 69,398201 | 41,365619 |
| 4 | Otmetka | 4 | 69,398864 | 41,365992 |
| 5 | Otmetka | 5 | 69,399416 | 41,365264 |
| 6 | Otmetka | 6 | 69,399771 | 41,364796 |
| 7 | Otmetka | 7 | 69,400452 | 41,365058 |
| 8 | Otmetka | 8 | 69,400603 | 41,364764 |
| 9 | Otmetka | 9 | 69,400965 | 41,364853 |
| 10 | Otmetka | 10 | 69,401212 | 41,364078 |
| 11 | Otmetka | 11 | 69,401517 | 41,363123 |
| 12 | Otmetka | 12 | 69,404396 | 41,363833 |
| 13 | Otmetka | 13 | 69,405041 | 41,363074 |
| 14 | Otmetka | 14 | 69,405431 | 41,362356 |
| 15 | Otmetka | 15 | 69,405988 | 41,361897 |
| 16 | Otmetka | 16 | 69,40667 | 41,361845 |

| | | | | |
|----|---------|----|-----------|-----------|
| 17 | Otmetka | 17 | 69,40712 | 41,361049 |
| 18 | Otmetka | 18 | 69,407526 | 41,360325 |
| 19 | Otmetka | 19 | 69,407858 | 41,359733 |
| 20 | Otmetka | 20 | 69,408337 | 41,35888 |
| 21 | Otmetka | 21 | 69,408801 | 41,358053 |
| 22 | Otmetka | 22 | 69,409518 | 41,357726 |
| 23 | Otmetka | 23 | 69,410207 | 41,356619 |
| 24 | Otmetka | 24 | 69,410801 | 41,355664 |
| 25 | Otmetka | 25 | 69,411005 | 41,354272 |
| 26 | Otmetka | 26 | 69,411246 | 41,352619 |
| 27 | Otmetka | 27 | 69,411607 | 41,350227 |
| 28 | Otmetka | 28 | 69,411151 | 41,347765 |
| 29 | Otmetka | 29 | 69,41064 | 41,346275 |
| 30 | Otmetka | 30 | 69,409708 | 41,344186 |
| 31 | Otmetka | 31 | 69,407886 | 41,342223 |

Shu bilan birga bazaviy bekatlar va otmetka nuqtalarining geografik koordinatalar tizimida koordinatalar katalogi yaratildi (1-jadval).

Toshket viloyati hamda Toshkent shahri o‘rtasidagi chegara chizig‘ini elektron taxeometr yordamida topografik s‘yomka qilish natijasida nuqtali qatlamlar ko‘rinishidaga vektor qatlamlari shakllantirildi. Mazkur vektor qatlamlarini maydonli ko‘rinishda geovizuallashtirish maqsadida tadqiqotchilar GPS suniy yo‘ldosh to‘lqin qabul qilgichi yordamida dala tadqiqot ishlarini olib bordilar.

Dala tadqiqot ishlarini Stonex R7 markadagi GPS suniy yo‘ldosh to‘lqin qabul qilgichi asosida maydonli qatlamlarni vektorlash usuli bilan amalga oshirildi. Toshkent shahar hududining jami 434292665,69 kv.m yer maydoni GPS suniy yo‘ldosh to‘lqin qabul qilgichi yordamida tadqiq qilindi. Shu jumladan Toshkent viloyatining ham Toshkent shahri bilan chegaradosh bo‘lgan 101006,61 metr qismi o‘rganildi. Dala tadqiqot ishlari Toshkent shahri bo‘yicha jami 784 ta nuqtadan iborat bo‘lgan maydonli qatlama vektorlandi. Bu ko‘rsatkich mavjud Toshkent shahri chegarasi bo‘yicha 776 tani tashkil etgan. Maydon jihatidan esa ga nisbatan 329531521,35 kv.m ni tashkil etgan. Binobarin mazkur qiymat bugungi kundagi loyiha asosida amalga oshirayotgan chegara maydoniga nisbatan 104761144,33 kv.m ko‘pligini ko‘rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Toshkent shahrining Toshkent viloyati bilan chegara hududidagi o‘zgarishlarni GPS kurilmasida s’yomka qilish natijalari.

Olib borilgan dala tadqiqot ishlari natijalarining aniqligini oshirish maqsadida tadqiqotchi GNSS suniy yo‘ldoshlar tizimida tadqiqotchilar geodezik qurilmadan foydalanib, differential sun’iy yo‘ldosh geodezik tarmog‘i asosida geodezik tenglashtirish ishlarini amalga oshirdi. Respublikamizda jami differential sun’iy yo‘ldosh geodezik tarmoqlari soni 50 tani tashkil etib, doimiy ishlovchi geodezik stansiyalar sanaladi.


Olib borilgan tadqiqot hududida jami 4 ta differential sun’iy yo‘ldosh geodezik tarmog‘i mavjud bo‘lib, ularning tasnifi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi mavjud differensial sun’iy yo‘ldosh geodezik tarmog‘lari tasnifi

| T/r | Hududning nomi | Joylashgan manzili | Bazadagi qisqartma nomi |
|-----|--------------------------------------|--------------------|-------------------------|
| 1 | Tashkent viloyati va Toshkent shahri | Bo‘ka tumani | BUKD |
| | | Yangiyul tumani | YAN1 |
| | | Chirchiq sh. | CHIR |
| | | Toshkent sh. | MAGK |

Mazkur differensial sun’iy yo‘ldosh geodezik tarmoqlaridan foydalanishda 195.158.30.3/sbc veb manzilidan foydalanib ruyxatdan o‘tiladi. Ruyxatdan o‘tilgach a’zolik badali bilan Renix fayllarni yuklab olish imkonini beradi. Tadqiqot ishida mualliflar bazadagi Renix fayllarni yuklab olib dalada tenglashtirish uchun olingan koordinata qiymatlari bilan bog‘lagan holda barcha dala tadqiqot ishlarini 2 sekund aniqlikdagi natijaga olib kelishga erishilgan. Natijada Toshkent viloyati hududidan Toshkent shahri hududiga o‘tuvchi yer maydonlarining chegara chiziqlari yuqori aniqlikda zamonaviy geodezik usullarni qo‘llagan holda geovizuallashtirildi (4-rasm).



4-rasm. Toshkent viloyati hududidan Toshkent shahri hududiga o‘tuvchi yer maydonlarining dasturiy taminotda yaratilgan yuqori aniqlikdagi xaritasi (Qibray tumani misolida).

Tadqiqot hududidagi qishloq xo‘jaligi yer maydonlari va aholi yashash joylarining bir turdan boshqa bir yer turiga o‘tkazishda yuqoridagi keltirilgan usullar asosida amalga oshirish mualliflar tomonidan tavsiya etiladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘jallangan yerkarni shahar hududiga ajratilishida yer tuzish loyiha ishlarida zamonaviy texnika va texnologiyalar yuqori aniqlikdagi natijalarga erishishda dasturil amal bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan shahar hududiga ajratishda dala tadqiqot ishlarini samarali olib borishda GPS va GNSS geodezik qurilmalaridan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi va aholi yashash joylarining chegara chizig‘ini aniqlash va atrof-muhitdagi infratuzilmani inobatga olgan holda yuqori aniqlikdagi topografik xaritasini yaratish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avezbayev S. Yer tuzishni loyixalashda avtomatlashgan tizimlar.- Toshkent: TIMI, 2010.
2. Avezbayev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - Toshkent: «Yangi asr avlod», 2004. - 784 b.
3. Turayev R.A., ParpiyevG’.T., Xoziyev Q.M. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasi. - Toshkent: «Zilol buloq» nashriyoti, 2020. - 52 b.
4. Turayev R.A. Yer monitoringi // O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2022y. 161 B.
5. Axmedov A.U., Parpiyev G’.T., Abdullayev S.A. Tuproq-meliorativ monitoringi / O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi, Tuproqshunoslik va agrokimyo davlat ilmiy-tadqiqot instituti. - Toshkent: «NOSHIR» nashriyoti, 2012. - 160 b.
6. Budnik L.I. Upravleniye injernernym obespecheniyem ekologicheskoy bezopasnosti zemelnix resursov // Organizasiya ustoychivogo zemlepolzovaniya: sbornik nauchnyx statey po materialam Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. V 2 ch. Ch.2 / Beloruskaya gosudarstvennaya selskoxozyaystvennaya akademiya; redkol.: P.A.Saskevich (gl. red.) [i dr.]. - Gorki, 2016. - S. 3-8.
7. Varlamov A.A. Sovremennyye problemy zemlepolzovaniya // Sovremennyye problemy effektivnogo zemlepolzovaniya: sbornik nauchnyx trudov. M.: GUZ, 2016. - S. 3-17.